



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

IJTIMOYIY PEDAGOGNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN AMALIY FAOLIYATI MAZMUNI

Xoshimova Mohinurxon Baxtiyor qizi

Fargʻona davlat universiteti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada, ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boradigan faoliyatining mazmuni, yoʻnalishlari va metodik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Maqolada ijtimoiy pedagogning oʻquvchi, ota-ona va pedagogik jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati, ijtimoiy muhitni sogʻlomlashtirish, nizoli vaziyatlarni oldini olish hamda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi vazifalar tizimli ravishda yoritildi. Shuningdek, oʻquvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda sogʻlom ijtimoiy muhitni qaror toptirishda ijtimoiy pedagogning hamkorlik faoliyati muhim omil sifatida koʻrsatib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy pedagog, maktab muhiti, ijtimoiy himoya, xavf guruhi, huquqiy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, hamkorlik mexanizmlari, zoʻravonlik holatlari, oʻquvchi shaxsiyati, ruhiy holatdagi buzilishlar.

СОДЕРЖАНИЕ ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОЦИАЛЬНОГО ПЕДАГОГА С ДЕТЬМИ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Хошимова Мохинурхон Бахтиёр кизи

Ферганский государственный университет, магистрант 1 курса

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы содержание, направления и методические основы деятельности социального педагога в работе с детьми школьного возраста. Освещена система задач социального педагога в сотрудничестве с учащимися, родителями и педагогическим коллективом, направленная на оздоровление социальной среды, предупреждение конфликтных ситуаций, а также защиту прав и интересов детей. Также показано, что формирование правовой культуры учащихся, развитие их социальной активности и создание благоприятной социальной среды являются важными направлениями совместной деятельности социального педагога.

Ключевые слова: социальный педагог, школьная среда, социальная защита, группа риска, правовое воспитание, социальная адаптация, механизмы сотрудничества, случаи насилия, личность учащегося, нарушения психоэмоционального состояния.

THE CONTENT OF THE PRACTICAL ACTIVITIES OF A SOCIAL PEDAGOGUE WITH SCHOOL-AGE CHILDREN

Xoshimova Mohinurkhon Bakhtiyor qizi

Fergana State University, 1st-year Master's Student

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the content, directions, and methodological foundations of the social pedagogue's activity in working with school-age children. The study systematically highlights the tasks of the social pedagogue carried out in cooperation with students, parents, and the teaching staff, aimed at improving the social environment, preventing conflict situations, and protecting the rights and interests of children.

Furthermore, the article emphasizes that fostering students' legal culture, developing their social activity, and establishing a healthy social environment are significant factors in the collaborative work of the social pedagogue.

Keywords: social pedagogue, school environment, social protection, risk group, legal education, social adaptation, cooperation mechanisms, cases of violence, student personality, psychological disorders.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o'quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta'lim olishlariga bog'liq barqarorlikni ta'minlash uchun ham juda muhim jarayon sanaladi [1]. Maktab yoshidagi bolalarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olgan holda samarali strategiyalarni qo'llash ijtimoiy pedagog faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi murakkab va ko'p omilli jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim muassasalaridagi zo'ravonlik holatlari, bullying (maktabdagi doimiy tazyiq), ruhiy buzilishlar hamda irodaviy sustlik kabi salbiy ko'rinishlarning uchrashi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolar nafaqat bolaning individual rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiylashuv jarayoni, o'zini anglash darajasi va kelajakdagi hayotiy pozitsiyasiga ham bevosita ta'sir etadi. Ijtimoiy pedagog zo'ravonlik va bullyingning oldini olish, ruhiy buzilishlarni erta aniqlashni amalga oshirish, irodaviy sifatlarni rivojlantirish hamda o'quvchilarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Shuningdek, u o'quvchi, ota-ona va pedagog jamoa o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali sog'lom ijtimoiy muhitni vujudga keltiradi [2].

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyoda 15 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 2,04 milliardga yetdi. Voyaga yetmaganlarning ulushi sayyoramiz aholisining taxminan 25 foizini tashkil qiladi. Shuningdek, har yili 2 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning yarmidan ko'pi zo'ravonlikning qandaydir ko'rinishini boshidan kechiradi. JSST keltirgan asosiy statistik ko'rsatkichlar quyidagilarni qamrab oladi:

- har yili dunyo miqyosida 1 milliarddan ortiq bola zo'ravonlikka uchramoqda;
- har besh boladan uch nafari uyda muntazam ravishda jismoniy kuch ishlatish bilan jazolanadi;
- har beshinchi qiz va har yettinchi o'g'il bola jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lmoqda;
- 25–50 foiz bola bezorilik nishoniga aylanadi;
- ko'pincha qurol va boshqa vositalar bilan bog'liq zo'ravonlik o'smir erkaklar o'limining asosiy sababidir [3].

2024-yil 15-avgust kuni Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi — UNICEF va boshqa tashkilotlar tomonidan O'zbekistonda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllariga chek qo'yish to'g'risidagi qonunning tasdiqlanishi olqishlandi. O'zbekistonda yaqinda o'tkazilgan MICS tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan har uch boladan ikkitasi (62%) qattiq intizomiy ta'sir ko'rsatish usullarini boshidan kechirgan, shuningdek, 15–19 yoshli qizlarning 33 foizi erning xotinini kaltaklashi to'g'ri deb hisoblaydi. Ushbu statistik ma'lumotlar bolalar uchun keng qamrovli huquqiy himoya zarurligini tasdiqlaydi [4]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ham aynan zo'ravonlikning barcha turlaridan bolalarni himoya qilish uchun ijtimoiy pedagog mutaxassisining amaliy targ'iboti kerakli ekanligini isbotlamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy maqolaning mavzusidan kelib chiqib, bir qator adabiyotlar tahlil qilindi. M.M. Abduraxmonova, B.Q. Qurbonova, M.Q. Raxmonova kabi mahalliy mualliflar va bir qator xorijiy

tadqiqotchilar, jumladan, Lev Vygotsky'ning "Bolalardagi ijtimoiy rivojlanish bosqichlari" haqidagi tadqiqotlari mohiyati ham juda muhim sanaladi. Bundan tashqari, John Dewey'ning "Ta'limning ijtimoiy tabiati" mavzusidagi tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalari juda o'rinli, deb ayta olamiz.

Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari shaxsning ijtimoiylashuvi, tarbiya jarayonining jamiyat bilan o'zaro bog'liqligi hamda ta'lim muhitining rivojlantiruvchi xarakteriga tayangan holda shakllanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlar ijtimoiy pedagog faoliyatining mazmuni, vazifalari va metodlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy rivojlanish nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Lev Vygotsky o'zining asarlarida bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida shakllanishini asoslab bergan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi ijtimoiy pedagog faoliyatining nazariy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, bola kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik jarayonida yuqori rivojlanish bosqichiga ko'tariladi. Bu esa maktab muhitida ijtimoiy pedagogning yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Pragmatik pedagogika yo'nalishining vakili John Dewey "ta'limni ijtimoiy tajriba jarayoni sifatida" talqin qiladi. Olimning fikricha, maktab bu kichik jamiyat modeli bo'lib, unda bola ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. Ushbu yondashuv pedagogning faoliyatini faqat muammoli vaziyatlarni hal qilish bilan cheklanmay, balki bolalarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etishga imkon beradi.

Shuningdek, mahalliy mutaxassislarimizdan M.Q. Raxmonova ham o'zining "Ijtimoiy pedagogika" kitobida ijtimoiy pedagog maktab muhitida qanday ish olib borishi kerakligi haqida yozadi. Ya'ni ijtimoiy pedagog o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishda ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoada tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishni tartibga soladi. U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to'g'risida axborot beradi [5]. Ayni shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borish rejasini tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bular qatorida ijtimoiy pedagogning tarbiyasi og'ir o'smirlar (11–15 yosh davri) va o'spirinlar (16–18 yosh davri) bilan ish olib borishiga ham e'tibor qaratiladi. Maktab ijtimoiy pedagogining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir o'smir va o'spirinlar, ya'ni 16–18 yoshli o'g'il-qizlardir. Bu davr shaxs shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga ega [6]. Shu bilan birga, bu davr o'smirlar tarbiyachilari uchun ham qiyin davrdir. O'spirinlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyatida o'zgarishlar ro'y beradi. Ota-ona va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi. Bunday vaziyatlarda ijtimoiy pedagog asosli metodlar bilan amaliy ishlarni olib borishi kerak bo'ladi.

Bu amaliy ishlar yuzasidan M.Q. Raxmonovanning "Ijtimoiy pedagogika" kitobida bayon etilgan. Bundan tashqari, M.M. Abduraxmonovanning "Maktablarda ijtimoiy ish" kitobida ham o'quvchilar bilan ishlash borasidagi amaliy ishlar yoritilgan. Misol uchun, baholash. Baholash bu shaxs, jarayon yoki faoliyat natijalarini oldindan belgilangan mezonlar asosida aniqlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonidir. Ilmiy nuqtayi nazardan baholash nazorat qilish emas, balki rivojlantirishni ta'minlovchi diagnostik va tahliliy mexanizm hisoblanadi. Ijtimoiy-pedagogik kontekstda baholash nafaqat akademik natijalarni, balki o'quvchining ijtimoiy moslashuvi, psixologik holati va kommunikativ kompetensiyalarini ham qamrab oladi. Bu jarayon kompleks diagnostik metodlar — kuzatuv, suhbat, test, sotsiometriya orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy yondashuvda baholash nazorat vositasidan ko'ra rivojlantiruvchi va motivatsion tizim sifatida qaraladi. O'quvchi shaxsiyati bu usulda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu amaliyot ota-onalar bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Umumiy ma'noda mikro, mezzo, makro baholash yondashuvlarini o'rinli tashkil etish ijobiy natijalarni qo'lga kiritish uchun zamin hozirlaydi.

Baholash amaliyoti pedagogik yondashuvlardan kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajaradi:

Diagnostik vazifa — o'quvchilarning mavjud bilim darajasini aniqlash.

Rivojlantiruvchi vazifa — o‘quv jarayonini takomillashtirish. Motivatsion vazifa — o‘quvchining ichki rag‘batini kuchaytirish. Nazorat vazifasi — ta‘lim standartlariga muvofiqlikni tekshirish jarayonlarini qamrab oladi.

Ta‘lim tizimida psixososial yondashuv bu yuqorida aytilganidek, o‘quvchi shaxsini biologik emas, balki psixologik (ruhiy jarayonlar, emotsiyalar, motivatsiya) va ijtimoiy (oila, maktab muhiti, tengdoshlar, madaniy kontekst) omillari birligida o‘rganishga asoslangan umumiy yondashuvdir. Psixososial yondashuvlarning asosiy tamoyillari quyidagilarni qamrab oladi:

1. **Shaxsga yo‘naltirilganlik** — har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy tajribasi inobatga olinadi.
2. **Ijtimoiy muhit bilan integratsiya** — maktab, oila va jamiyat hamkorligi asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish.
3. **Profilaktik va korreksion yo‘nalish** — zo‘ravonlik, bulling, ijtimoiy ajralish va emotsional buzilishlarning oldini olish.
4. **Emotsional-intellektual rivojlanish** — o‘quvchilarda empatiya, o‘zini boshqarish va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishni qamrab oladi.

Psixososial yondashuvning ta‘lim muassasalaridagi amaliy ahamiyati quyidagicha: sog‘lom psixologik iqlimni vujudga keltiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi hamda akademik muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini barqarorlashtiradi. Ayniqsa, ijtimoiy xavf guruhiga mansub bolalar bilan ishlashda bu yondashuv muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ta‘lim tizimidagi bunday yondashuvlar shaxs rivojlanishini umumiy tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchining nafaqat bilim olishini, balki sog‘lom ijtimoiy shaxs sifatida shakllanishini ta‘minlashga qaratilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Maktab muhitida ijtimoiy kelib chiqishi turfa xil bo‘lgan o‘quvchilar borligi ma‘lum. Shu sababli, ular bilan ijtimoiy ish olib borish keng ko‘lamli yondashuvlarni talab etadi. Bularni inobatga olgan holda, metodlarni bilish, qo‘llay olish va tatbiq eta olish eng muhim jarayon hisoblanadi. Bundan tashqari, maktablarda madaniyati xilma-xil bo‘lgan bolalar soni oshib borar ekan, ular o‘z madaniyatlariga taalluqli bo‘lmagan o‘quvchilar va mutaxassislariga duch keladilar [7]. Maktab ijtimoiy ish xodimlari o‘qituvchilar va xodimlarga maktabdagi madaniyatlar to‘g‘risidagi turli-tuman masalalarda xabardor bo‘lishlari uchun o‘quv dasturlarini ham ishlab chiqishlari mumkin. Maktablardagi ijtimoiy ish xodimlari bolalarga nisbatan zo‘ravonlik yoki e‘tiborsizlik haqida shubhaga ega bo‘lsalar, bu haqda oqilona va vijdonli yechimlar ishlab chiqishi o‘rinli sanaladi.

Pedagogik faoliyat ta‘lim va tarbiya orqali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yo‘naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta‘lim standartlari, o‘quv rejalari, dasturlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolaga ijtimoiylashuv jarayonida yordam ko‘rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. U o‘quvchilar bilan turli xil ta‘lim muassasalari, tashkilotlari bilan birgalikdagi amaliy jarayonlarni qamrab oladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi o‘quvchilarning ruhiy barqarorligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi, atrofidagi unga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillardan ogohlantiruvchi va ularni yengib o‘tuvchi ijtimoiy, huquqiy, ruhiy, tibbiy va pedagogik muammolarni kompleks ravishda hal etish maqsadida turli mutaxassislar hamda ma‘muriy organlar va idoralarning mazkur masalaga yo‘naltirilgan sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirib turishda vositachi ham bo‘la olishi kerak. Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muhim yo‘nalish BMT konvensiyasida e‘lon qilingan bolalarning yashashga, sog‘lom shakllanishga, ta‘lim olishga, o‘z qarashlarini erkin ifoda etishga, kamsitishning har qanday turidan himoyalanihga qaratilgan huquqlarini himoya qilishni qamrab oladi [8].

Ijtimoiy pedagogning kasbiy bilimlari quyidagilarni qamrab oladi: ko‘p vazifali pedagogik bilim, psixologik bilim, tarbiyaviy ish metodikasi va bolalarning rivojlanish fiziologiyasi. Har bir ijtimoiy pedagog ishining muhim o‘ziga xosligi bolalar xulqining axloqiy

asoslari buzilishiga olib keladigan aniq faktlarni aniqlash va bartaraf etishga yo‘naltirilishi kerak. Mutaxassis har bir kichik muhitda o‘smir o‘z tengdoshlari, o‘quvchilar va o‘qituvchilar hamda ota-onalar o‘rtasida insonparvarlik etikasiga rioya qilishni talab etadi [9]. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi shaxsining ruhiy, ma‘naviy dunyosi shakllanishini qamrab oladi.

Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonida ham ijtimoiy pedagog har tomonlama qiyin vaziyatlarga duch kelishi ayni haqiqat. Bu holatda bola ruhiyatida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ishonchsizlik vujudga keladi, bola o‘zini keraksiz deb his eta boshlaydi. Bunday vaziyatlarda o‘z o‘rnida kerakli yordamlar ko‘rsatilmasa, bolaning keyingi rivojlanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin bo‘ladi. Zo‘ravonlikning eng kichik turi ham bolaga qattiq zarba berishi mumkin bo‘ladi.

Zo‘ravonlikning eng kichik ko‘rinishiga quyidagilar kiradi:

- doimiy masxara qilish, kamsituvchi laqab qo‘yish;
- qattiq va haqoratli ohangda gapirish;
- e‘tiborsizlik yoki sovuqqonlik bilan jazolash (masalan, gapirmay qo‘yish);
- bolaning fikrini mensimaslik, uni doimiy tanqid qilish [10].

Biz ko‘pincha yuqoridagi holatlarni “oddiy holat” sifatida qabul qilamiz. Lekin bu xato tushuncha sanaladi.

Zo‘ravonlikning eng katta ko‘rinishlari esa inson hayoti va salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi:

- og‘ir jismoniy tajovuz (urish, qiynoq);
- jinsiy zo‘ravonlik;
- oila ichidagi tizimli zo‘ravonlik;
- qurolli to‘qnashuvlarda bolalardan foydalanish.

Zo‘ravonlikning “kichik” ko‘rinishi ham e‘tiborsiz qoldirilsa, vaqt o‘tishi bilan “katta” ko‘rinishga aylanishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy pedagog va psixologlar uchun erta profilaktika va psixososial yondashuvlar muhim sanaladi [11]. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, zo‘ravonlik ijtimoiy hodisa sifatida ko‘p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekanligi aniqlanadi. Bunday ijtimoiy vaziyatlarda esa ijtimoiy pedagog faoliyatiga ehtiyoj seziladi.

XULOSA

Maktab jamoasi bilan ishlash, xususan, o‘quvchilar bilan ishlash murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bola shaxsining ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va huquqiy himoyasini ta‘minlashga qaratilgan tizimli va maqsadli jarayondir. Ijtimoiy pedagog ushbu jarayonda ta‘lim muassasasi, oila va jamiyat o‘rtasidagi vositachi sifatida faoliyat yuritadi hamda bolalarning individual ehtiyojlari, yosh xususiyatlari va ijtimoiy muhitini umumiy tahlil asosida hisobga oladi.

Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifalari profilaktika, diagnostika, korreksiya va rehabilitatsiya yo‘nalishlarini qamrab oladi. Xususan, zo‘ravonlik, bundan tashqari, bulling, ijtimoiy moslashuv muammolari, ruhiy buzilishlar va irodaviy sustlik kabi omillarni erta aniqlash hamda ularning oldini olish ijtimoiy pedagog faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda individual suhbatlar, treninglar, psixoprofilaktik mashg‘ulotlar, ota-onalar bilan hamkorlik va ijtimoiy suhbatlar samarali metod sifatida qo‘llaniladi.

Shuningdek, ijtimoiy pedagog faoliyati bolaning huquqiy ongini rivojlantirish, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Mazkur faoliyatning samaradorligi tizimlilik, uzluksizlik, kasbiy kompetensiya va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy ma‘noda ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan faoliyati bu nafaqat muammolarni bartaraf etish, balki shaxsning har tomonlama kamol topishi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatda munosib o‘rin egallashini ta‘minlovchi muhim pedagogik mexanizmdir. Bugungi kunda o‘quvchilar bilan ishlash, ularning shaxsiyatlaridan kelib chiqib, ularga yo‘l ko‘rsatish juda muhim jarayon sanaladi. Sababi zamonaviy jamiyatlarda axborotlar oqimi shu darajada tezlik bilan tarqalmoqdaki, bunday

vaziyatlarda bola ongini zararli ma'lumotlardan himoya qilish mexanizmlari ham biz uchun zarur. Ijtimoiy pedagog yuqoridagilarni inobatga olgan holda amaliy ishlarni olib borishi va ijobiy natijalarni qo'lga kiritishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov B. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiyalar, 2020.
2. Qosimova D. Maktab va ijtimoiy xizmat integratsiyasi. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.
3. Abduraxmonova M. M. Maktablarda ijtimoiy ish. – Farg'ona, 2022.
4. Abduraxmonova M. M., Alekseyeva S. V., Latipova M. N., Akramov O. D. Yordamga muhtoj bolalar bilan ijtimoiy ish. – Farg'ona, 2021.
5. Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti kursi bo'yicha qo'llanma. – Farg'ona, 2017.
6. Maxsus pedagogik qo'llanma. – T., 2019.
7. Qoraboyeva Z., Abdusamatova N. Ijtimoiy pedagogika. – Namangan, 2017.
8. UNICEF. Rasmiy sayt. – URL: <https://www.unicef.org>
9. Kun.uz. Rasmiy sayt. – URL: <https://kun.uz>